

**TARIX SAHIFALARIDA SOHIBQIRON AMIR TEMUR**

**Gulyamov Alisher Azizovich**

Osiyo Xalqaro Universiteti “Tarix va filiologiya” kafedrasi o‘qituvchisi.

*aligulyamov1997@gmail.com*

**Xamidova Rayxonabegim Xaydar qizi**

Osiyo Xalqaro Universiteti 1-T-24 guruh talabasi.

*<https://doi.org/10.5281/zenodo.15287040>*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek xalqi tarixida chuqur iz qoldirgan buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temurning hayoti, harbiy yurishlari, davlat boshqaruvi tizimi hamda ilm-fan va madaniyat rivojiga qo‘sghan hissasi yoritilgan. Sohibqironning adolatga asoslangan siyosati, Temur tuzuklarida aks etgan davlat boshqaruvi prinsiplari va u tomonidan asos solingan markazlashgan davlatning tarixiy ahamiyati tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada Amir Temur siymosining jahon tarixidagi o‘rni va zamonaviy jamiyat uchun dolzarbli haqida ham fikr yuritiladi.

**Kalit so’zlar:** Amir Temur, Sohibqiron, Temur tuzuklari, Temuriylar davlati, harbiy yurishlar, davlat boshqaruvi, o‘rta asrlar, Markaziy Osiyo tarixi, adolatli siyosat, ilm-fan va madaniyat, tarixiy meros, sarkarda, Temur siyoshi.

Amir Temur Muhammad Tarag‘ayning o‘g‘li edi. Tug‘ilishidan boshlab, Temur katta maqsadlar sari intiluvchi shaxs sifatida shakllangan. Uning oilasi qabila sardorlari orasida yuqori mavqega ega bo‘lgan va bu Temurning yoshligida yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirishiga sharoit yaratgan.

Amir Temurning bolaligi Movarounnahrning notinch davriga to‘g‘ri keldi. Chig‘atoy ulusining zaiflashuvi natijasida mintaqqa anarxiyaga yuz tutgan edi. Shu davrda yosh Temur o‘z atrofidagi nizolar va ziddiyatlardan saboq olib, strategik fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini shakllantirdi. Yoshligidan jang san‘ati va harbiy strategiyaga katta qiziqish bilan yondashgan Temur o‘z qobiliyatlarini doimiy ravishda rivojlantirib bordi.

Amir Temur bilim olishga alohida e‘tibor qaratgan shaxs sifatida tarixda tanilgan. Uning tarbiyasida asosiy rolni Muhammad Tarag‘ay va boshqa mahalliy ulamolar o‘ynagan. Yosh Temurning bilim olishdagi qiziqishi nafaqat diniy ta‘lim bilan cheklanib qolmagan, balki tarix, falsafa, huquq va harbiy san‘at kabi sohalarni ham o‘z ichiga olgan. Bu esa uning kelgusidagi siyosiy va harbiy faoliyatiga muhim ta’sir ko‘rsatdi.

Amir Temurning ustozlari orasida ko'zga ko'ringan diniy va ilmiy arboblar bo'lgan. Ular orasida Sharq falsafasini chuqur bilgan olimlar hamda Islom huquqshunosligida yetuk mutaxassislar bor edi. Ustozlaridan olgan bilimlari tufayli Temur diniy bag'rikenglik va adolatni davlat boshqaruvining asosiy tamoyillaridan biri sifatida ko'rdi. Bundan tashqari, u harbiy strategiyalar va jangovar taktikalarni o'rganish uchun o'sha davrning eng yetuk sarkardalarining tajribalarini o'rgangan.

Movarounnahrda ta'lim va madaniyatning rivojlanishi Amir Temur yoshligida o'zining ma'nnaviy va intellektual shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. U hududdagi madrasalarda ta'lim olib, Islom ilmlari bilan chuqur shug'ullangan. Shuningdek, u tarixiy asarlar va urush san'ati bo'yicha asarlarni o'qishga katta e'tibor bergan. Ushbu bilimlar keyinchalik uning davlatni boshqarish va harbiy yurishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishida muhim rol o'yagan.

Amir Temur yoshlik davridan boshlab adolat tamoyillariga asoslangan boshqaruv tizimini yaratish orzusida bo'lgan. Uning ta'lim olishi davomida shakllangan intellektual salohiyati va ma'nnaviy qadriyatlari uning butun hayot faoliyatida yorqin namoyon bo'ldi.

Amir Temur dunyodagi eng buyuk harbiy strateglardan biri sifatida tanilgan. Uning harbiy mahorati va jangovar takkasi uning butun faoliyatini belgilab berdi. U turli janglarda qo'llagan o'ziga xos strategiyalari bilan raqiblarini doimiy ravishda hayratda qoldirgan.

Amir Temur 1360-1370-yillar oralig`ida Movarounnahrni birlashtirish uchun astoydil harakat qiladi. Amir Temur dastlab Movarounnahr hududidagi ichki nizolarni bartaraf etib, o'z hokimiyatini mustahkamlaydi. U Balx va Samarqand kabi muhim shaharlarni o'z qo'l ostiga olgach, Samarqandni poytaxt etib belgilaydi.

Amir Temurning Oltin O'rda hukmdori To'xtamishga qarshi yurishlari muhim ahamiyatga ega. Bunga To'xtamishxonning mamlakat shimoliy sarhadlariga talonchilik yurishlarini amalga oshirgani va bir vaqtlar Amir Temur bergen yordamlarni unutgani sabab bo`ldi. U 1391-yilda Qunduzcha jangida To'xtamishni tor-mor keltirdi. 1395-yilda esa Terek daryosi bo'yidagi jangda yana katta g'alabaga erishib, Oltin O'rda davlatini zaiflashtirdi.

Amir Temur Hindiston sari yurish qilib, 1398-yili Dehli sultonligini mag'lub etdi. U Dehli shahrini egallab, o'z kuch-qudratini Hindiston hududlarida ham ko'rsatdi.

Keyinroq Amir Temur Usmonli sulton Boyazid I Yildirim bilan to'qnash kelgan. 1402-yilda Anqara shahri yaqinidagi jangda Boyazidni asirga olib, Usmonli imperiyasini qisqa vaqtga zaiflashtirdi.

Amir Temur Fors (Eron) hududidagi muhim shaharlarni, jumladan Isfahon va Sherozni egallab, bu yerlarda o‘z hukmronligini o‘rnatdi. U boshqa mahalliy davlatlarga qarshi ham muvaffaqiyatli janglar olib boradi.

Amir Temur bunday ulkan sarhadlarni egallab olish uchun o`z davrining mukammal qo‘sishini tuzgan sarkarda va hukmdor edi. Temur o‘z qo‘sishlarini yuqori darajada intizomli qilib tashkil qildi va jang oldidan mukammal reja tuzishga katta e’tibor berdi. U jang maydonida tezkor qarorlar qabul qilish qobiliyati bilan ajralib turardi. Uning eng muvaffaqiyatli harbiy yurishlaridan biri biz yuqorida ta’kidlab sanab o’tgan Hindiston yurishi bo‘lib, unda Temur Dehli sultonligini mag‘lub etib, katta g‘alabaga erishdi. Bundan tashqari, u Oltin O‘rda va Usmonli imperiyasiga qarshi muvaffaqiyatli yurishlarni ham amalga oshirgan.

Amir Temur janglarda dushman qo‘sishlarini parchalash va ularni alohida qismlarga ajratib yo‘q qilish taktikasidan foydalanardi. Bu yondashuv unga katta janglarda g‘alaba qozonish imkonini berdi.

Amir Temur o‘zining jangovar yutuqlari va harbiy dahosi tufayli nafaqat o‘z zamonasida, balki butun dunyo tarixida buyuk sarkarda sifatida nom qoldirgan. Uning strategiyalari bugungi kungacha harbiy san’at va menejment sohasida o‘rganib kelinmoqda.

Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda, balki ajoyib davlat arbobi sifatida ham tarixda iz qoldirgan. Uning boshqaruvi tamoyillari va davlatni tashkil qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar “Temur Tuzuklari” asarida mujassam etilgan. Ushbu asar Amir Temurning davlat boshqaruvi, harbiy yurishlari va shaxsiy hayoti haqida qimmatli ma'lumotlarni o‘z ichiga oladi.

“Temur Tuzuklari” ikki asosiy qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismida davlat boshqaruvi va ichki siyosatga oid ko‘rsatmalar berilgan. Temur bu qismdaadolat, intizom va mas’uliyatni davlat boshqaruvining asosiy tamoyillari sifatida ta’kidlaydi. Ikkinci qism esa harbiy yurishlar va jangovar strategiyalar haqida bo‘lib, unda Temurning jangovar taktikalari va urushda qo‘llangan usullari bayon etilgan.

Temur Tuzuklarining ikkinchi bo‘limi asosan harbiy yurishlar, jangovar taktikalar va qo‘sishlarni boshqarish haqida bat afsil ma'lumot beradi. Ushbu bo‘limda Temur o‘zining harbiy yutuqlari ortidagi asosiy printsip va strategiyalarni bayon qilgan.

1. Harbiy yurishlarning tayyorgarligi: Amir Temur jangovar harakatlarni oldindan puxta rejelashtirish va barcha ehtimoliy vaziyatlarni hisobga olish muhimligini ta’kidlaydi. Qo‘sishlarning joylashuvi, ta’midot zanjiri va strategik maqsadlar oldindan aniq belgilab qo‘yilgan.

2. Qo'shinlarning tartibi va intizomi: Temur qo'shinlarning intizomli bo'lishini harbiy g'alabaning asosiy omili sifatida ko'rgan. Har bir jangchi o'z vazifasini aniq bilishi va bajarishi kerak edi.

3. Dushmanni alday olish san'ati: Tuzuklarda dushmanni chalg'itish va uning kuchlarini noto'g'ri yo'nalishga yo'naltirish usullari batafsil bayon etilgan. Temur bu uslubni janglarda muvaffaqiyat qozonishning samarali vositasi sifatida qo'llagan.

4. Turli xalqlar va madaniyatlar bilan ishlash: Temur bosib olingan hududlar aholisi bilan qanday munosabatda bo'lish kerakligini ham bayon qilgan. U adolatli boshqaruв orqali hududlarda barqarorlikni saqlashni maqsad qilgan.

5. Jangovar taktikalar: Bo'limda Temurning jang maydonida qo'llagan taktikalari, masalan, qo'shinlarni turli qanotlarga bo'lish, zaxira kuchlarni strategik joylashuvi va kutilmagan hujumlar haqida qimmatli tavsiyalar keltirilgan.

Bu bo'lim Temurning nafaqat buyuk sarkarda, balki o'z davrining harbiy nazariyotchisi sifatida ham ulkan yutuqlarga erishganligini ko'rsatadi.

«Temur Tuzuklari»ning ikkinchi bo'limi nafaqat tarixiy asar, balki harbiy strategiyalarni o'z ichiga olgan.

Temuriylar davlati (1370–1507) harbiy tashkilot va iqtisodiy siyosatda muvaffaqiyatli tizimga ega bo'lib, uning asosiy qismlaridan biri “ulufa” (maosh ya'ni nafaqa) edi. Ulufa harbiy xizmatchilar va davlat amaldorlariga muntazam ravishda berilgan.

Amir Temur davlatida ulufa quyidagi turlarga bo'lingan:

- Pul shaklida ulufa – Askar va amaldorlarga muntazam maosh sifatida berilgan.
- Yer sovg'aleri (suyurg'ol) – Harbiy xizmati uchun askarlarga yerlar berilib, undan olingan daromad ularga tegishli bo'lган.
- O'lja va soliqdan ulush – G'alabalardan keyin qo'lga kiritilgan o'lja yoki ma'lum viloyatlardan olinadigan soliqlarning bir qismi askarlarga taqdim etilgan.

Amir Temur ulufani quyidagi tartibda tarqatishni ma'qul ko'rgan:

Ulufa miqdori oddiy askarlarga har oy yoki harbiy yurishlar davomida ma'lum miqdorda pul yoki oziq-ovqat ko'rinishida berilgan. Qo'mondonlar va amaldorlarga, ularning ulufalari yuqori bo'lib, ko'pincha yerlar bilan ta'minlangan. Elit qismlar (masalan, Amir Temurning shaxsiy qo'shini) maxsus imtiyozlarga ega bo'lib, katta miqdordagi mukofotlar va yerlar bilan taqdirlangan.

Daftar (ro'yxat) tizimi mavjud bo'lib, har bir askar va amaldor maxsus daftarda (divon) qayd etilib, ulufa miqdori belgilangan. Amir Temur harbiy qismlarni tekshirib, ulufa to'lashni nazorat qilgan.

Harbiy yurishlarda qo'shimcha mukofotlar bilan ham rag'batlantirilgan. Jangda ko'rsatgan jasorati uchun askarlarga qo'shimcha mukofotlar (oltin, kiyim-kechak, qullar) berilgan.

Amir Temur Tuzuklarida ulufaning ahamiyatini alohida takidlab, ulufa tartibi:

- Qo'shin sodiqligini ta'minlashini (muntazam maosh askarlarning sodiqligini oshirgan);
- Harbiy intizomni mustahkamlashini (adolatli taqsimot qo'shin tarkibini mustahkamlagan);
- Iqtisodiy tizimning bir qismi ekanligini (soliqlar va g'azna mablag'lari ulufaga sarflangan)

belgilab bergen.

Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asari Amir Temur va Temuriylar davlati tarixini yorituvchi asosiy manbalardan biri bo'lib, unda Temur qo'shining tuzilishi, harbiy strategiyasi va jangovar usullari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Tarixchi olim «Zafarnoma»da Temur qo'shini quyidagi qismlardan iborat bo'lgani ta'kidlagan:

Asosiy harbiy qismlar:

- Chag'oniyon (markaziy qo'shin) – Temurning shaxsiy qo'shini, eng sadoqatli va tayyorlashgan askarlar;
- Qo'sh begi qo'shini – Yuqori martabali amirlar qo'mondonligidagi alohida otryadlar;
- Viloyat qo'shnulari – Xorazm, Farg'ona, Movarounnahr kabi hududlardan yig'ilgan askarlar.

Maxsus harbiy birliklar:

- Sipohiyon (otliq qo'shin) – Asosiy hujum kuchini tashkil etgan;
- Piyda (piyoda askarlar) – Qal'a mudofaasi va hujumlarda ishtirok etgan;
- Muhandis va to'pchi qismlari – Qamal janglari va muhandislik ishlari uchun javobgar.

«Zafarnoma»da Amir Temur o'z qo'shining qanday qilib yuqori intizomda ushlab turganligini ta'riflaydi:

Birinchidan, qat'iy qonunlar – har bir askar buyruqni bajarmasa, qattiq jazolangan.

Ikkinchidan, muntazam mashqlar – jangovar tayyorgarlik doimiy olib borilgan.

-Uchinchidan, raqobat va mukofotlar – ajoyib jasorat ko'rsatganlar yuqori martaba va sovg'alar bilan taqdirlangan.

Shuningdek, «Zafarnoma»da quyidagi strategiyalar ham qayd etilgan:

- «Tulug'ma» (yolg'on chekinish) – Dushmanni qo'zg'olon qilish uchun hiyla;
- «Qamal urushi» – Shaharlarni uzok vaqt mobaynida qurshab olish;
- «Chapar» (tezkor hujum) – Otliq qo'shin bilan to'satdan zarba berish.

Sohibqiron Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi bo‘lib, o‘zining harbiy iste’dodi, dono siyosati va adolatli boshqaruvi bilan tarix sahifalarida o‘chmas iz qoldirdi. Uning yurishlari natijasida Markaziy Osiyoda qudratli imperiya barpo etilib, fan, madaniyat va iqtisodiyot rivoj topdi. Temur tomonidan asos solingan davlat nafaqat harbiy kuch bilan, balki ilm-fan va san’atga e’tibor qaratish bilan ham ajralib turardi. Bugungi kunda Amir Temurning siyosiy merosi nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo tarixshunoslari tomonidan o‘rganilib, e’tirof etilmoqda.

**Foydalanimanadabiyotlar ro’yxati:**

1. Gulyamov, A. A. (2024). JAMIYATIMIZNING IJTIMOIY-IQTISODIY, MA’NAVIY-MADANIY SOHALARIDA OILANING ROLI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(2), 149-153.
2. Azizovich, G. A. (2024). Trade Relations of Population in Bukhara Emirate, Shariah Rules and Regulations in Commercial Affairs, Partnership Relations. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 189-194.
3. Azizovich, G. A. (2024). Family-Marriage and Inheritance Relations of the Population in the Bukhara Emirate. *Miasto Przyszłości*, 53, 964-969.
4. Gulyamov, A. (2024). BUXORO MUZEYNING TASHKIL TOPISHI TARIXI. *Modern Science and Research*, 3(12), 659-667.
5. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). BUXORO OCHILGAN MUZEYLARNING TASHKIL TOPISH TARIXI. *Modern Science and Research*, 4(1), 248-256.
6. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). O ‘RTA OSIYO OLIMLARINING KARTOGRAFIK MEROSI. *Modern Science and Research*, 4(1), 221-227.
7. Srojeva, G., Gulyamov, A., & Haqqulov, M. (2025). XVII ASRDA BUXORODA ABDULAZIZXON MADRASASINING QURILISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(1), 471-478.
8. Gulyamov, A., & Ashurov, D. (2025). CHANGES IN THE LIFE OF THE WORLD’S COUNTRIES AFTER WORLD WAR II. *Journal of universal science research*, 3(1 (Special issue)), 333-341.
9. Gulyamov, A. (2025). MANG ‘ITLAR SUOLASI DAVRIDA DAVLAT BOSHQARUVI, TUZUMI VA ICHKI SIYOSATI. *Modern Science and Research*, 4(1), 790-798.

10. Gulyamov, A., & Xamidova, R. (2025). ABU RAYHON BERUNIY BUYUK QOMUSIY OLIM. *Modern Science and Research*, 4(2), 758-766.
11. Gulyamov, A. (2025). BUXORO AMIRLIGIDA ISTIQOMAT QILGAN MILLIY-ETNIK GURUHLAR. *Modern Science and Research*, 4(2), 1020-1028.
12. Srojeva, G., Haqqulov, M., & Gulyamov, A. (2025). KUDZULA KADFIZ BOSHCHILIGIDA KUSHON IMPERIYASIGA ASOS SOLINISHI VA BU IMPERIYANING RAVNAQI. *Modern Science and Research*, 4(2), 109-117.
13. Haqqulov, M., Gulyamov, A., & Srojeva, G. (2025). JADIDLARNING 1916 YILDAGI XALQ QO'ZG'OLONIDA TUTGAN O'RNI. MILLIY HUKUMAT-TURKISTON MUXTORIYATI VA UNING FAOLIYATI. *Modern Science and Research*, 4(2), 100-108.
14. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). BUXORO MUZEYINING II JAON URUSHIGACHA BO 'LGAN DAVRDAGI FAOLIYATI. *Modern Science and Research*, 4(2), 92-99.
15. Gulyamov, A., & Atoyeva, M. (2025). ABU ALI IBN SINO-ILM-FAN TARIXIDAGI BUYUK ALLOMA. *Modern Science and Research*, 4(3), 591-599.
16. Gulyamov, A., Yarashova, M., & Karimov, S. (2025). BUXORO VOHASIDA MATO VA MATO TAYYORLASH USULLARI. PAXTA. G 'UZAK. JUN. XALAJI. BO 'Z. OLACHA. BEQASAM. BAXMAL. ADRAS. *Modern Science and Research*, 4(3), 330-340.
17. Gulyamov, A. (2025). O 'RTA ASR SHAHARLARINING DEMOGRAFIK HOLATI, SHAHARLARNING KENGAYISHI, AHOLINING IJTIMOIY TARKIBI. *Modern Science and Research*, 4(3), 974-983.
18. Gulyamov, A., Yarashova, M., & Karimov, S. (2025). РОЛЬ ХАНА УЗБЕКА В РАСПРОСТРАНЕНИИ ИСЛАМА В ЗОЛОТОЙ ОРДЕ. *Modern Science and Research*, 4(3), 146-154.
19. Gulyamov, A., Yarashova, M., & Karimov, S. (2025). O 'RTA ASRLARDA G 'ARBIY YEVROPADA SHAHAR-QAL'A, SHAHAR-CHERKOV, SAVDO O 'BYEKTI AHAMIYATIGA OID SHAHARLARNING VUJUDGA KELISHI. *Modern Science and Research*, 4(3), 122-131.
20. Haqqulov, M. Y. O. G. L. (2022). Markaziy Osiyoda ilk diplomatik munosabatlar tarixi. *Science and Education*, 3(10), 385-389.

21. Yunusovich, H. M. (2024). Experiences Related to the Fine Fiber Cotton of Uzbekistan during the Years of Soviet Authority. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(9), 129-132.
22. Yunusovich, H. M. (2024). The Formation, Development and Role of the High Seljuk Empire Founded by the Turkic Peoples in the Islamic World. Miasto Przyszłości, 53, 956-959.
23. Haqqulov, M. (2024). O 'RTA OSIYO XALQLARINING OZODLIK ORZUSI BO'LGAN "TURKISTON MUXTORIYATI". Modern Science and Research, 3(12), 609-613.
24. Haqqulov, M. (2025). USMONIYLAR IMPERIYASINING TASHKIL TOPISH TARIXI. Modern Science and Research, 4(1), 663-672.
25. Haqqulov, M. (2024). TURKISTON OZODLIGINING JARCHILARI. Medicine, pedagogy and technology: theory and practice, 2(11), 154-159.
26. Xakkulov, M., & Kosimov, U. (2025). HISTORY OF MILITARY WORK IN THE EMIRATE OF BUKHARA. Journal of universal science research, 3(1 (Special issue)), 319-325.
27. Muyiddinov, B. (2023). XII-XIII ASRLAR DAVRIDA BUXORODA ILM – FANNING RIVOJLANISHI. SCHOLAR, 1(28), 341–345. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10027071>
28. Muyiddinov Bekali. (2023). MO'G'ULLAR BOSQINI DAVRIDA BUXORONING AYANCHLI TAQDIRI. TADQIQOTLAR.UZ, 25(2), 212–215. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/308>
29. Muyiddinov Bekali. (2023). THE ROLE OF BUKHARA AND OTHER CITIES IN THE MILITARY ART AND ARMY STRUCTURE OF KHOREZMSHAHS . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 35(3), 55–58. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/10035>
30. Muyiddinov, B. (2024). BARTHOLD'S "СОЧИНЕНИЯ. ТОМ I. ТУРКЕСТАН В ЭПОХУ МОНГОЛЬСКОГО НАШЕСТВИЯ" THE HISTORY OF THE CREATION OF THE WORK. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(1), 699–702. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10552555>
31. Muyiddinov, B. (2024). THE ROLE OF MILITARY REFORMS IN THE BUKHARA KHANATE IN THE LIFE OF THE STATE UNDER THE SHAYBANIDS. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(2), 646–648. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10668887>

32. MB Bahodir o'g'li. (2024). Military Art of Turkish Khaganate in the Early Middle Ages. European Journal of Innovation in Nonformal Education, 4(16), 223–227. <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/2705/2586>
33. XORAZMSHOHIDLAR DAVLATI HAYOTIDA TURKON XOTUNNING O'RNI. (2024). MEDICINE, PEDAGOGY AND TECHNOLOGY: THEORY AND PRACTICE, 2(4), 463-469. <https://universalpublishings.com/index.php/mpttp/article/view/5192>
34. Sayfutdinov Feruz Ilniyozovich, . (2023). LAND OWNERSHIP RELATIONS BASED ON THE NATIONAL ECONOMY OF KARAKALPAK. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(11), 20–27. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue11-04>
35. Sayfutdinov Feruz Ilniyozovich, . (2023). STUDY OF THE KARAKALPAK PEOPLE IN ETHNOLOGICAL SCIENTIFIC WORKS HISTORY . *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 61–68. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue12-11>
36. Ilniyazovich, S. F. (2024). The Formation of Preliminary Knowledge about the People of Karakalpak. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 149-155.
37. Sayfutdinov, F. (2024). BUXORO AMIRLIGINING QURILISH TARIXI: MADANIY VA ARXITEKTURA TARAQQIYOTI MEROSSI. *Modern Science and Research*, 3(12), 852-858.
38. Sayfutdinov Feruz Ilniyoz o'g'li. (2023). XX ASR 2-YARMI XXI ASR BOSHLARI ZARAFSHON VOHASIDA ETNOSLARARO MUNOSABATLAR. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMUY JURNALI*, 3(9), 1–5. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/7941>
39. Sayfutdinov, F. . (2024). ILLUMINATION OF THE SPIRITUAL LIFE OF THE KARAKALPAK PEOPLE IN RESEARCH. *Journal of Universal Science Research*, 2(5), 441–452. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/universal-scientific-research/article/view/34891>
40. Umidjon Xayrullayev. (2024). THE POSITION OF CENTRAL ASIAN GOVERNORSHIPS DURING THE PERIOD OF THE TURKISH KHANATE AND THE ARAB INVASION. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13958464>
41. Xayrullayev Umidjon Fayzullo o'g'li. (2024). LEGITIMACY OF RULERSHIP IN THE STATE OF CENTRAL ASIA AND IRAN IN ANCIENT TIMES AND THE EARLY MIDDLE AGES. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14222295>

42. Xayrullayev, U. (2024). EFTALLAR DAVLATI VA TURK XOQONLIGIDA HUKMDORLIK LEGITIMATSİYASI. *Modern Science and Research*, 3(12), 843–851. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/58469> 8.
- BIRINCHI RADIO EHTIYOTLAR TARIXIDAN. (2024). *MEDICINE, PEDAGOGY AND TECHNOLOGY: THEORY AND PRACTICE*, 2(4), 657-663. <https://universalpublishings.com/index.php/mpttp/article/view/5240>
43. Xayrullayev, U. (2024). TURK XOQONLIGI VA ARABLAR BOSQINI DAVRIDA O’RTA OSİYO HOKIMLIKLARINING MAVQEYI. *Modern Science and Research*, 3(12), 339–343. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/58055>
44. Xarullayev Umidjon. (2024). RELIGIOUS AND THREATS IN MEDIASPACE. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(5), 593–595. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11311154>
45. Boltayev, O. (2024). QO’QON XONLIGINING XVIII ASR SO’NGI CHORAGIDA BUXORO, XIVA VA KO’CHMANCHILAR BILAN OLIB BORGAN DIPLOMATIYASI. *Modern Science and Research*, 3(10), 64-68.
46. Obid o’g’li, B. O. QO’QON XONLIGINING XVIII ASR SO’NGI CHORAGIDA BUXORO, XIVA VA KO’CHMANCHILAR BILAN OLIB BORGAN DIPLOMATIYASI.
47. Boltaev, O. (2024). BUKHARA’S CARAVAN TRADE AND ITS ROLE ON THE SILK ROAD. *Analytical Journal of Education and Development*, 4(10), 293-297.
48. Boltayev, O. (2024). XX ASR BOSHLARIDA GERMANIYA VA TURKIYA ITTIFOQINING MARKAZIY OSIYOGA TA’SIRI. *Modern Science and Research*, 3(12), 556-564.
49. Boltayev, O. (2023). A GENERAL DESCRIPTION OF THE POLITICAL AND DIPLOMATIC PROCESSES IN CENTRAL ASIA IN THE MIDDLE OF THE 18TH CENTURY. *Modern Science and Research*, 2(9), 145-149.
50. Boltayev, O. (2025). TARIX FANI UCHUN YOZMA VA OG’ZAKI MANBALARNING SHAKLLANISHI. *Modern Science and Research*, 4(1), 909-917.
51. Shokir o’gli, U. S. (2023). MILLIY QADRIYATLARIMIZ ASROVCHISI. *Journal of new century innovations*, 35(1), 79-80.
52. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN THE SOCIAL DEVELOPMENT OF SOCIETY. *Modern Science and Research*, 2(10), 755–757.

53. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF WOMEN IN NEIGHBORHOOD MANAGEMENT IN UZBEKISTAN. Modern Science and Research, 2(9), 132–135.
54. Sadullayev, U., Muyiddinov, B., & Boltayev, O. (2025). YOSHLAR DUNYOQARASHI SHAKLLANISHIDA MILLIY TARBIYA VA TA'LIMNING AHAMIYATI. Modern Science and Research, 4(1), 59–67.
55. Sadullayev, U., Muyiddinov, B., & Boltayev, O. (2025). IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARI. Modern Science and Research, 4(1), 52–58.
56. Vahobovna, S. G. (2024). TALIM SOHASIDAGI ISLOHATLAR ECHIMI, NATIJALARI VA MUAMMOLARI.
57. Vahobovna, S. G. (2024). O'zbekiston Olimlaring Inson Falsafasi Haqidagi Qarashlari. *Journal of Innovation in Volume*, 2(8).
58. Vahobovna, S. G. (2024). O'zbekiston Olimlaring Inson Falsafasi Haqidagi Qarashlari. *Journal of Innovation in Volume*, 2(8).
59. Srojeva, G. (2025). BO'RIBOY AHMEDOVNING "TARIXDAN SABOQLAR" ASARIDA SHAYBONIYLAR DAVRI TARIXINING O'RGANILISHI. Modern Science and Research, 4(2), 1227-1236.
60. Srojeva, G., & Idiyeva, S. (2025). MANG'ITLAR SULOLASINING BUXORO AMIRLIGIDA HOKIMIYATNI EGALLASHI VA MANG'ITLAR DAVRIDA AMIRLIKDAGI IJTIMOIY-IQTISODIY MADANIY HAYOT. Modern Science and Research, 4(2), 830-836.